

ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI

Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi

1. Aniq fanlar
2. Tabiiy fanlar
3. Texnik fanlar
4. Iqtisod fanlari
5. Pedagogika
6. Filologiya
7. Sanat va madaniyat
8. Kitobxonlik yo‘nalishi
9. Ijtimomy-Gumanitar
10. Sport
11. Tibbiyot

16-son
www.academic.uz



ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI

MUNDARIJA		
<u>1</u>	<i>Mamazulinova Feruza</i> <i>Ravshan qizi</i>	SHUM BOLA” ASARIDA FRAZELOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI 6
<u>2</u>	<i>T.T. Raхmonov,</i> <i>Ш. X. Камилев</i>	ГРАФЕН И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ВОЗОБНОВЛЯЕМОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ 10
<u>3</u>	<i>Axrorova. Amira.Aminova</i> <i>Boltayeva Madina Jamshid qizi</i>	MAKTABGACHA YOSHDAI BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISH USULLARI 20
<u>4</u>	<i>Axrorova Amira Aminovna</i> <i>Boltayeva Madina Jamshidovna</i>	METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO PRESCHOOL CHILDREN. 23
<u>5</u>	<i>Yusupov Damin Zokirovich</i> <i>Ahrorova Amira</i>	HOW TO TEACH ENGLISH YOUNG LEARNERS 26
<u>6</u>	<i>Rahmonova Gulbadanbegim</i> <i>Dustyor qizi</i>	B-SPLAYN EGRI CHIZIQLARINI QURISHDA TUGUNNI KIRITISH ALGORITMLARINI QO‘LLASH 29
<u>7</u>	<i>Ubaydullayeva Marjonoy</i> <i>To‘ychi qizi</i>	PSIXOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI 34
<u>8</u>	<i>Maxamatmurodov Abubakir</i> <i>Ahmad o‘g‘li</i> <i>Ochilova Noila Farmonova</i>	CULTURE EXPRESSING HAPPINESS AND CONTENTMENT IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES 37
<u>9</u>	<i>Sanjar Xudoynazarov Said o‘g‘li</i> <i>Botirova Munisa Qosim qizi</i>	ECOTOURISM AND ITS ADVANTAGES TO THE LOCAL BUSINESSES 41
<u>10</u>	<i>Yoqubova Muxlisa</i> <i>Axrorova.A.A</i>	IMPORTANCE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECO 45
<u>11</u>	<i>Tursunova Saida</i> <i>Axrorova.A.A</i>	THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING 48
<u>12</u>	MAMATQULOVA ZARIFAXON MUHAMMADSOLIYEVNA	O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA YANGICHA TEXNOLOGIYA VA TAVSIYALAR 52
<u>13</u>	ESHONQULOVA IRODAXON MUXAMMADSOLIYEVNA	O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA SOG‘LOM OTA- ONA MASALASI 57
<u>14</u>	<i>Abdulhamidova Nilufar</i> <i>Qahramonovna</i> <i>Xasanova Madina</i> <i>O‘tkirbek qizi</i>	KIBERXAVFSIZLIK, TARMOQ XAVFSIZLIGI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI 62
<u>15</u>	<i>Abduvosiyeva Zulfizar</i> <i>Axrorova A.A</i>	ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING HAYOTIMIZGA TA‘SIRI 66
<u>16</u>	<i>Alimova Zebo</i>	EDUCATION AND INTERNET 70
<u>17</u>	<i>Turaboyeva Sitora Zokir qizi</i> <i>Utambetova Arzayim</i> <i>Kalmurzayevna</i>	SYLLABUS REQUIREMENTS FOR THE SENIOR STUDENTS OF SCHOOL 74
<u>18</u>	<i>Atabayeva Zarina.</i>	ABOUT GLOBAL WARMING. 76
<u>19.</u>	<i>Bahodirov Muzrob Doniyor o‘g‘li</i>	XOURNAL DASTURI VA UNING IMKONIYATLARI 79
<u>20.</u>	<i>Ismatova Ezozxon</i> <i>Sarvar qizi</i> <i>Sh.T.Boltaeva</i>	BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISHDA O‘QITISH VA SO‘ZLASHISHNING INNOVATSION USULLARI 83
<u>21.</u>	<i>Сайфиев Мақсуд Насирдин ўгли,</i> <i>Атакулова Наргиза</i> <i>Абдиганиевна,</i> <i>Абдуқаҳҳорова Мухлиса</i> <i>Абужалил қизи</i>	РУХ ИОНИНИ ТАБИЙЙ ОБЪЕКТЛАР ТАРКИБИДАН ИНВЕРСИОН ВОЛЬТАМПЕРОМЕТРИК УСУЛДА АНИҚЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ 87
<u>22.</u>	<i>Yusupov Damin Zokirovich</i> <i>Ahrorova Amira</i>	YOSHLAR O‘RTASIDA IJTIMOYIY ONG TAMOYILLARINI SHAKILLANTIRISH 91
<u>23.</u>	<i>Abdusamatova Shaxodat</i> <i>Xojiakbar qizi,</i> <i>Qurbanbayeva Dildora Achilbay</i> <i>qizi</i>	“DASTURLASH TEXNOLOGIUALARINI BOSQICHMA BOSQICH O‘QITISH” MAVZUSINI “G‘OYALAR BULUTI” METODIDAN FOYDALAIB TAHLIL QILISH TEXNOLOGIYALARI 94
<u>24.</u>	<i>Rahmonberdiyeva Dilfuza</i> <i>Berdiyov qizi</i> <i>Axrorova Amira Amirovna</i>	EFFICIENCY OF HOTEL ACTIVITIES AND WAYS TO INCREASE 97
<u>25.</u>	<i>Abduraximov Mingjigit</i> <i>Kattabekovich., Xudoyberdiyev</i> <i>Jasurbek Ravshanbek o‘g‘li.,</i> <i>Xayitov Ergash Pulot o‘g‘li.</i>	TA‘LIM JARAYONLARIDA EKOLOGIK TA‘LIM TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZARURIYATI 102

ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI

26.	<i>Fayzullaeva Nazokat Abdusattarovna</i>	DEVELOPING THE INTERCULTURAL DIMENSION IN LANGUAGE TEACHING	<u>107</u>
27.	<i>Narmuradova Rayhon Uktamovna</i>	FORMING A POSITIVE ATTITUDE AND SKILLS OF THE TEACHER IN THE PROCESS OF PROBLEM SITUATIONS OF STUDENTS	<u>110</u>
28.	<i>Gaybullayeva Nilufar Yusuffjon qizi</i>	WAYS TO IMPROVE KNOWLEDGE IN LANGUAGE LEARNING	<u>114</u>
29.	<i>Хайитов Умиджон Хамидович</i>	ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	<u>118</u>
30.	<i>Ismatova Dilorom Hotam qizi</i>	“TURIZM KELIB CHIQUISH TARIXI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI”	<u>121</u>
31.	<i>Jurayeva Muattar Rahimboy qizi</i>	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI	<u>124</u>
32.	<i>Axrorova Amira Amirovna Karomatov Akbar Abramat o'g'li</i>	ABDULLA QAHHORNING HIKOYALARI QAHRAMONLARI TASVIRIDA DAVR BELGILARINI ANGLASH	<u>128</u>
33.	<i>Sharipova Zumrad Maqsudbek qizi</i>	MAHALLIY VA DORIVOR XOM ASHYOLAR ASOSIDA ALKOGOLSIZ ICHIMLIKLAR ISHLAB CHIQUARISHNI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	<u>132</u>
34.	<i>Sabirova Nadira Komiljonovna Do'stmurodova Dildora.</i>	FARFOR VA FAYANS KOLLEKTSIYALARINING EKSPERTIZASI VA ATRIBUTSIYASI	<u>136</u>
35.	<i>Madullayeva Muxlisa Shavkat qizi Axrorova Amira</i>	THE HEPPIEST WOMEN	<u>141</u>
36.	<i>Urinova Durdona Axrorova A</i>	MAIN FACTORS FOR IMPROVING THE NATIONAL EDUCATIONAL SYSTEM	<u>143</u>
37.	<i>Urinova Durdona Axrorova Amira</i>	THE BEST SOURCE OF INFORMATION, BOOK OR TV?	<u>146</u>
38.	<i>Matkarimova Dilfuza Abuovna Abatbaeva Aygul Muratbay qizi Orazaliev Dilmurat Temur ulli</i>	VETERINARY TERMS COMPARATIVE ASPECTS	<u>148</u>
39.	<i>Джусраева Муаммар Ахорова А. А.</i>	МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	<u>153</u>
40.	<i>Azizov Ulug'bek Raxmatov Otabek</i>	MUSIQA TARBIYASINING HAYOTIMIZDAGI O'RNI VA ROLI	<u>156</u>
41.	<i>Otajonova Umida Ollaberganovna</i>	TARBIYALANUVCHILARDA KOMPETENSIYA RIVOJLANTIRISH	<u>160</u>
42.	<i>Parlapani Alla Valerevna</i>	ASPECTS OF LIBRARY MANAGEMENT	<u>163</u>
43.	<i>Sanaev O'Imas Baxrom o'g'li</i>	PUFLAB CHALINADIGAN CHOLG'U ASBOBLARI: FLEYTA	<u>166</u>
44.	<i>Aхмадова Рушана Ахорова Амира</i>	ЭТИТИКА МЕЖДУ ПЕРСОНАЛОМ ОТЕЛЯ И КЛИЕНТАМИ.	<u>171</u>
45.	<i>Saidov Behzod Yusup o'g'li, Kengboyev Sirojiddin Abray o'g'li</i>	QOBIQ TRUBALI ISSIQLIK ALMASHINISH QURILMALARINING TASNIFI	<u>176</u>
46.	<i>ERMATOVA LOLA RAXMATULLAYEVNA</i>	TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA	<u>180</u>
47.	<i>NORMURODOV SADRIDDIN SALIM O'G'LI</i>	TASVIRGA ISHLOV BERISH UCHUN CHUQUR O'RGANSH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	<u>184</u>
48.	<i>Sayfullayeva Nozima Baxodirovna, Esanova Feruza Xikmatillo qizi</i>	MAKTAB MATEMATIKA KURSINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR	<u>189</u>
49.	<i>Dadayev Boxodir G'ayrat o'g'li</i>	ДЕМОКРАТИК ЖАМИЯТ ЯРАТИШНИНГ HUQUQIY TAMOYILLARI	<u>192</u>
50.	<i>Turaxon Abdurahmanov</i>	COMPARATIVE ANALYSIS AND LINGO-DIDACTIC ISSUES OF REPORTED SPEECH IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES	<u>195</u>
51.	<i>XAYDAROVA NARGIZA RAJAB QIZI</i>	CHET TILI DARSLARINI INTERFAOL USULDA TASHKIL ETISH	<u>199</u>
52.	<i>Hikmatov Diyorbek Xamroqul o'g'li</i>	FEATURES OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY EDUCATION	<u>202</u>

53.	<i>Рустамов Санжар Аширалиевич Юлдашева Сугдиёна Махмуджон қизи Индира Махамат Марселевна Муслимова</i>	УЗУМ УРУҒИ ТАРКИБИДАГИ ЭКСТРАКТИВ МОДДАЛАРНИ АНИҚЛАШ	205
54.	<i>Алтмишева Ёркиной Мажидовна</i>	ТИПОЛОГИЯ ЦИТАТ ИЗ КУРЪАНА В ПЕРЕВОДЕ «БАБУРНАМЕ» НА РУССКИЙ ЯЗЫК	208
55.	<i>Хамраева Гуландом Намозовна Ахтямова Лариса Лермонтовна</i>	ВЗГЛЯД НА УЗБЕКСКУЮ НАЦИОНАЛЬНУЮ МУЗЫКУ	212
56.	<i>Атакулова Наргиза Абдиганиевна, Зияев Дилшод Абдуллаевич, Рихсиева Шахноза Равшан қизи</i>	СЕЛЕН ИОНИНИ ИНВЕРСИОН ВОЛЬТАМПЕРОМЕТРИК УСУЛДА АНИҚЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ	215
57.	<i>Шарипов Илхом Азизбой ўғли</i>	3X3-ОПЕРАТОРЛИ МАТРИЦАНИНГ МУҲИМ СПЕКТРИ ҲАҚИДА	220
58.	<i>ADHAMJON OTAXANOV</i>	“NASOYIM UL-MUHABBAT” TAZKIRASIDA TASAVVUFGA OID ATAMA VA IBORALARNING QO‘LLANILISHI O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS TADQIQOTLARIDA	223
59.	<i>Maftuna Maxkamova</i>	BAHOLASHNING KONTSEPTUAL YONDASHUVLARI SHARAFLI KASB EGALARI	227
60.	<i>Xursanova Ro'zigul Furqat qizi Azizova Sevara Sobir qizi</i>		230
61.	<i>Rakhmanqulova Dilnoza Eshnazarovna</i>	ABOUT METHODS OF LANGUAGE TEACHING	232
62.	<i>Рахмонбердиева Дилфуза Бердийёр қизи Ахророва.А.А</i>	РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫЕ ОБЛАСТИ РАСТЕНИЯ АЗОЛЛА И ЗА ЕЕ СПОСОБАМИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ	236
63.	<i>Махмудова Муҳаббат Ваҳодировна Худайбергеннова Севара Вахтияровна</i>	SINFDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNING GEOGRAFIYA TA'LIMIDAGI AHAMIYATI	239
64.	<i>Абдукадировна Динара Ташканбаевна</i>	ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ	243
65.	<i>Мансуров Толибжон Зиёдулло ўғли</i>	УМУМЛАШГАН ФРИДРИХС МОДЕЛИНИНГ СПЕКТРАЛ ХОССАЛАРИНИ МАРҒЕ ПАКЕТИ ЁРДАМИДА ЎРГАНИШ	245
66.	<i>А.Т.Умиров Х.М.Эшанкулов</i>	КОМБАЙН ДОН ТОЗАЛАШ ҚИСМИ ВЕНТИЛЯТОРИНИНГ АЙЛАНИШЛАР СОНИНИ АНИҚЛАШ	249
67.	<i>Холмуродов Бехзод Ботир ўғли</i>	ДИСКРЕТ ПАРАМЕТРЛИ 3X3 ОПЕРАТОРЛИ МАТРИЦА УЧУН СПЕКТРАЛ МУНОСАБАТЛАР	254
68.	<i>Джумашев Алишер Нишанбаевич</i>	СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДОВ ПЕРВИЧНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ СОРТИРОВКИ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ	257
69.	<i>Нарманов Отабек Абдиганпарович., Бегимов Ойбек Мамарасулович., Нуралиев Нурбек Рустам ўғли Жумабекова Бахтигул Рустам қизи</i>	МАРҒЕ ДАСТУРИДА ФУНКЦИЯЛАРНИ ТАСВИРЛАШ	262
70.	<i>Норчаев Рамзиддин</i>	УНИКАЛЬНОСТЬ ЭСТРАДНО-ДЖАЗОВОЙ МУЗЫКИ	266

MAKTAB MATEMATIKA KURSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLAR

Sayfullayeva Nozima Baxodirovna, Esanova Feruza Xikmatillo qizi

Buxoro davlat universiteti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida matematika fanini o’qitishda ayrim interfaol usullardan foydalanish masalasi “Tub va murakkab sonlar” mavzusini o’qitish misolida yoritib berilgan. Dars jarayonida foydalanish mumkin bo’lgan interfaol usullardan “qoidani to’g’ri ayt” o’yini va “mosini top” usulidan namunalari keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:** matematika fani, tub sonlar, murakkab sonlar, dars jarayoni, interfaol usullar, “qoidani to’g’ri ayt” o’yini, Eratosfen g’alviri.*

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Ushbu tezisdagi umumta’lim maktablarining Matematika kursini o’qitishda ayrim interfaol usullarni qo’llash masalasi “Tub va murakkab sonlar” mavzusi misolida tushuntiriladi.

Bizga maktab matematika kursidan yaxshi ma’lumki, “Tub va murakkab sonlar” mavzusi “Bo’linish belgilari” mavzusidan keyin keladigan mavzu bo’lib, o’quvchi natural sonlarning 2 ga, 3 ga, 5 ga, 9 ga va 10 ga bo’linish belgilari haqida batafsil ma’lumotga ega bo’lsagina tub va murakkab sonlar mavzusini o’zlashtirishda qiyinchilikga uchramaydi. Bunda yangi mavzu bayoniga o’tishdan oldin o’tilgan darsni o’quvchilar hukmiga “Qoidani to’g’ri ayt” o’yinini havola qilish mumkin:

1) Sonning bo’luvchisi deb –

- 2) Sonning karralisi deb –
- 3) Bo'linish belgisi deb –
- 4) bu son 2 ga bo'linadi;
- 5) bu son 3 ga bo'linadi;
- 6) bu son 5 ga bo'linadi;
- 7) bu son 9 ga bo'linadi;
- 8) bu son 2 ga bo'linadi.

O'quvchilar navbat bilan yuqorida sanab o'tilgan 8 ta qoidaga javob beradilar. Bu jarayonda o'qituvchi javobning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga qarab izoh va to'ldirishlar qilishi mumkin.

O'tilgan mavzuni takrorlashda “Mosini top” usulidan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usulda “Qoidani to'g'ri ayt” o'yinidan farqli o'laroq javoblar aralash shaklda bo'lsada jadvalda o'z aksini topgan bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga to'g'ri javoblarni eslashda yoki mantiqiy fikrlab topishda biroz imkoniyat yaratadi. Chunki ko'p hollarda javoblarni taqqoslash orqali ham bilimlarni mustahkamlar hamda o'tilgan tushunchalarni mustahkamlash yaxshi samara beradi.

Shu bilan bir qatorda bu o'rinda buyuk ajdodlarimizning mavzuga oid tadqiqot natijalaridan, tarixiy ma'lumotlardan keltirish orqali o'quvchilarda ajdodlarimizga nisbatan hurmat-izzatni shakllantirish mumkin. Masalan, buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino (980-1037) dunyoga mashhur “Tib qonunlari”ni yaratgan alloma bo'lish bilan birga, uning matematikaga oid tadqiqotlari ham bor. Dars davomida Abu Ali ibn Sinoning “Ash-shifo” asarining “Sonlar fani” bo'limidan olingan quyidagi natijalarni keltirish mumkin.

Agar sonni 9 ga bo'lganda:

- 1) 1 yoki 8 qoldiq qolsa, bu sonning kvadratini 9 ga bo'lganda 1 qoldiq qoladi;
- 2) 2 yoki 7 qoldiq qolsa, bu sonning kvadratini 9 ga bo'lganda 4 qoldiq qoladi;
- 3) 4 yoki 5 qoldiq qolsa, bu sonning kvadratini 9 ga bo'lganda 7 qoldiq qoladi;
- 4) 3 yoki 6 qoldiq qolsa, bunday sonning kvadrati 9 ga bo'linadi.

O'quvchilarga bir nechta misollarda Ibn Sino isbotlagan bu tasdiqlarni tekshirib ko'rish tavsiya etiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o‘tishi mumkin. Yangi mavzuga oid ma’lumotlar berilgach, darslikda keltirilgan misollar tahlil qilinadi.

Shu o‘rinda mavzuga oid tarixiy ma’lumotlardan keltirish, xususan “Eratosfen g‘alviri” haqida tushuncha berish o‘quvchilarda matematika faniga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Sonlarning bo‘linish belgilari, tub sonlar juda qadim zamonlardan oq matematiklar diqqatini o‘ziga tortgan. Ayniqsa, tub sonlar, ularning nechtaligi, natural sonlar qatoriga qanday joylashganligi bilan ko‘pchilik olimlar qiziqishgan va chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Yunon olimi Yevklid (eramizdan avvalgi III asr) tub sonlarning cheksiz ko‘pligini isbotlagan.

Tub sonlar jadvalini tuzish usullaridan eng qadimgisi va eng soddasi yunon matematigi Eratosfen taklif qilganidir. Bu usul quyidagidan iborat: 2 dan boshlab biror natural songacha, masalan 100 gacha bo‘lgan barcha natural sonlar yoziladi va undagi murakkab sonlar o‘chiriladi. O‘chirilmay qolganlari – tub son bo‘ladi.

Go‘yoki Eratosfen 100 ta natural sonni g‘alvirga solib elagan: tushib ketganlari murakkab, qolganlari esa tub sonlar bo‘lgan. Shuning uchun ham u taklif qilgan usulni “**Eratosfen g‘alviri**” deyishadi.

Darsni yakunlashdan oldin, o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadida savollar berish mumkin. Mavzuga oid testlardan dars yakunida o‘quvchilar bilimni qisqa muddatda baholashda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilariga Matematika kursining “Tub va murakkab sonlar” mavzusini o‘qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma’lumotlardan foydalanish orqali darsning o‘tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini samarali tashkil etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Haydarov B.Q. Matematika 5 sinf (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik). Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2015. - 240 b.